

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi e’loni

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ba’zi xizmatlarning xususiy sektorga o‘tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko‘rsatiladigan xizmat sifatining oshishini, balki budget mablag‘larining samarali sarflanishini ham ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 563-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barpo etish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2024-yildagi "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste’mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi barpo etish loyihasi (quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang) ishlab chiqilayotganligi ma’lum qilinadi.

Loyiha doirasida tadbirkorlik subyekti va Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 400 o‘rinli talabalar turar joyi quriladi, Bunda, xususiy sherikka talabalar turar joylarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlari bo‘yicha bir o‘ringa to‘g‘ri keladigan qiymatning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan ortiq bo‘lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.

Loyiha doirasida xususiy sherik va budget mablag‘lari hisobiga qurilgan talabalar turar joyi binosi 30 yildan so‘ng davlat sherigiga soz holda qaytariladi.

Xususiy sherik 30 yil davomida talabalarga yotoq joy xizmatlarini ko‘rsatadi, talabalar turar joyini soz holda saqlash va sifatli xizmat ko‘rsatish xususiy sherik hisobidan amalga oshiriladi.

Yotoq joy uchun talabalar tomonidan to‘lanadigan to‘lov miqdori davlat sherigi bilan kelishilgan holda o‘rnatiladi. Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari 42°27’35"N 59°35’51"E



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud bo'lgan taqdirda, 2025-yil 13-yanvarga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

1. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali:
230101, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi, 24 -uy

Elektron pochta manzili: ozdjtsunf@edu.uz

Telefon raqami: +998 (61) 224-27-73, +998 (61) 224-27-78

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

100095, Toshkent shahri, Talabalar ko'chasi, 7-uy.

Elektron pochta manzili: devonxona@edu.uz

Telefon raqami: 55 520-08-08

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filialida
hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi binosini
loyihalashtirish, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko‘rsatish va qaytarishni
tashkil etish loyihasi to‘g‘risida
MA’LUMOT**

| № | Asosiy ko‘rsatkichlar | Ma’lumotlar |
|----------|--|--|
| 1. | Loyihaning nomi | O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali hududida davlat-xususiy sheriklik asosida 400 o‘rinli talabalar turar joyi binosini loyihalash, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko‘rsatish va qaytarishni tashkil etish. |
| 2. | Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi: Xususiy tashabbuskor: | O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “XAYAT GROUP” MChJ |
| 3. | Loyihaning faoliyat yo‘nalishi | O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabalari turar joy bilan ta‘minlanadi. |
| 4. | Loyihaning joylashgan manzili | Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog‘iston ko‘chasi 24-uy, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali hududida |
| 5. | Loyihani amalga oshirish muddati | 1 yil. |
| 6. | Loyihaning amal qilish muddati | 30 yil. |
| 7. | Iste‘molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari | Talabalarga turar joyda yashagani uchun oyiga 220,0 ming so‘m |
| 8. | Loyihaning umumiy qiymati | 32 973,1 mln so‘m |
| 9. | Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi va turlari | O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali hududidan 0,3 ga yer maydoni vaqtincha foydalanishga beriladi; Vazirlar Mahkamasining 563-sonli qarorining 1(b)-bandiga muvofiq, xususiy sherikka talabalar turar joyini qurish uchun loyiha bo‘yicha bitta yotoq o‘rni hisobida talab etiladigan mablag‘ning 50 foizi, ya‘ni 15,0 mlrd so‘m miqdorda Davlat budjetidan subsidiya ajratiladi. |